

IKKINCHI XORIJIY TIL FORS TILINING O'QITISH METODIKASI

Nurullayev Jahongir Muhammadali o'g'li

Yosh chegarachilar harbiy akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fors tili haqida hamda uni ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi hamda o'qitish jarayonidagi pedagogik texnologiyillardan foydalanish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Xorijiy til, Tehron dialekti, hind — yevropa, Eron, fors tili, metodika, texnologiya, grammatika.*

Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tilidir. Fors adabiy tilining tayanch dialekti — Tehron dialektidir. Fors tili o_zaro qarindosh bo_lgan boshqa tillar bilan birgalikda hind — yevropa tillariga mansub bo_lgan eroniy tillar guruhiga kiradi. Eroniy tillar ba'zi bir fonetik va grammatik xususiyatlariga ko_ra g_arbiy va sharqiy guruh eroniy tillariga bo_linadilar.

1. G_arbiy guruh eroniy tillariga fors, tojik, beluch, kurd va Kaspiy bo_yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolsh, tot) va boshqa tillar kiradi.

2. Sharqiy guruh eroniy tillariga afg_on (pushtu), osetin, yag_nob va pomir tillari (shug_non, voxon, sanglichi, yazg_ulom, ishkashim, zeboki, munjon) va boshqa tillar kiradi.

Eroniy tillar o_zlarining grammatik qurilishi va leksik tarkibi jihatidan bir-biridan ancha farq qiladilar. Hozirgi fors tili o_z yozuviga ega bo_lgan eng qadimiy tillardan biridir. Qadimiy fors tili eramizdan avvalgi VI asrda Ahamoniylar sulolasining rasmiy tili hisoblanib kelgan. Bu tilda yozilgan ahamoniylarning bir qancha yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgandir. Fors tilining tarixiy taraqqiyot yoii uch asosiy davrga bo_linadi:

1. Qadimgi fors tili (eramizdan avvalgi VI—III asrlar).
2. O_rta davr fors tili (eramizdan avvalgi III va eramizning VII asrlari).
3. Yangi ya'ni hozirgi fors tili (IX asrdan shu kungacha bo_lgan davmi o_z ichiga oladi).

Har bir davr yagona umumxalq tilining asosiy va eng muhim taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi. Har bir davr tilining o_ziga xos grammatik xususiyatlari, lug_aviy o_zgarishlari va ma'lum yozuv sistemasi bo_lgan.

Fors tilini ikkinchi til sifatida o'qitish uchun har bir til guruhining maqsadi va bilim saviyasiga mos alohida dastur, dars materiallari va o'qitish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi eng yaxshi o'qitish metodini izlash maqsadida ta'lim

metodlaridan xabardor bo'lishi kerak emas, balki til o'rganuvchining maqsadi talab-ehtiyojlaridan xabardor bo'lish orqali qanday mavzularni o'qitishi kerakligini bilib olishi zarur. Talaba o'qituvchining gapirgan gaplarini tushuna olishi, o'zining strategiyasiga tegishli qo'llanmalar va darsliklarni o'qiy olishi, imtihon topshirishi, dars paytida savol bera olishi, o'rgangan narsalarini gapirib bera olishi kerak. O'qituvchi shu maqsadda qaysi so'zlarga, grammatik materialga va til ko'nikmalariga ehtiyoji borligini aniqlaydi. Talab-ehtiyojlarini o'rgangandan keyin, til o'rganuvchining jismoniy xususiyatlari, til bilish qobiliyati, his-tuyg'ulari, ta'lim muassasaning imkoniyatlarini hisobga olib, til materiallarini o'qitish uchun qaysi o'qitish metodi hamda dars jarayonida qanday faoliyatlar ma'qul ekanligini belgilaydi. Shuning uchun o'qituvchi barcha ta'lim metodlari va dars jarayonlarining xususiyatlaridan xabardor bo'lishi kerak, toki kerak bo'lgan ularning orasidan bir yoki bir necha ta'lim metodlari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fors tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda yangi pedagogik ta'lim asosida zamon talabiga javob beradigan darajada o'zgartirish kiritishni zamon taqozo etmoqda. O'quv qo'llanma va darsliklarni tuzishda yangi pedagogik texnologiyaga suyanan holda, talabalarning mustaqil ishlashdagi faoliyatini oshirish maqsadida turli xarakterdagi mashqlarni berib, ularni bajarishda talabalardan ancha bilim va fikr yuritish talab qilinadi.

Masalan so'roq gaplar va fe'l mavzulari misolida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Fors tilida ot kesimli sodda gaplarga savol tuzish uchun turli usullardan foydalaniladi.

1. Intonatsiya orqali;
2. كۈڭۈڭ so'roq olmoshlari orqali;
3. So'roq yuklamalari orqali;
4. So'roq olmoshlari va so'roq so'zlari orqali.

BBB metodini fors tilida so'roq gaplarning ifodalanishi mavzusiga tadbiiq qildik va natija quyidagicha: Jadvalning bilaman qismiga so'roq gap haqida umumiy bilganimiz yozildi. Biz o'zbek tilida so'roq gaplarning yasalishidan xabardor bo'lganimiz uchun jadvalning bilishni xohlayman qismiga fors tilida so'roq gaplarning yasalishi haqida savol berdik. Eng oxirgi Bilib oldim qismiga esa fors tilida so'roq gaplarning 4 xil yo'l bilan yasalishini to'liq yoritib berdik. Bundan ko'rinib turibdiki BBB jadvalidan muvafaqqiyatli foydalandik.

<u>Bilaman</u>	<u>Bilishni xoxlayman</u>	<u>Bilib oldim</u>
<u>So'roq gaplar so'roq olmoshlari bilan yasaladi.</u>	<u>Fors tilida so'roq gaplar qanday yo'l bilan yasaladi?</u>	<u>Fors tilida so'roq gaplar 4 xil yo'l bilan yasaladi:</u> <u>1. Intonatsiya</u> <u>2. كه va چه so'roq olmoshlari</u> <u>3. يا va مگر yuklamalari</u> <u>4. So'roq so'zlari</u> <u>چطور</u> , <u>رنگ چه چکاره</u> , <u>rang che</u> , <u>چتور</u> , <u>chetur</u> , <u>چکاره</u> , <u>chekāre</u> , <u>کجا</u> , <u>ko'jo</u> , <u>کدام</u> , <u>ko'dom</u> , <u>chegune</u>

BBB metodini fors tilida so'roq gaplarning ifodalanishi mavzusiga tadbiq qildik. Bunda talabalar ushbu metod orqali o'zbek va fors tilidagi so'roq gaplarning o'zaro tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishiga erishdik.

Xulosa qilib aytganda, fors tilini talabalarga ikkinchi til sifatida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar, taqdimotlar, audio - video materiallar orqali ta'lim berish yuksak natijalarga olib kelishi isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamatov M. Fors tili. –T., 2007.
2. Abdusamatov M. Siz forscha so'zlashasizmi? –T., —O'qituvchil, 1971
3. Qurbanbekov A. Vohidov A. Ziyayeva T. Fors tili T. 2006.
4. Mohammad Reza Bateni. Farsi zabane aqim? (Is the Persian unproductive language?), Adine, 1989, No 33.